


## 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3 882,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,7% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2,5% ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 90,9% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,0% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,chiqindilarni utilizatsiya qilish 1,6% ga o'sishi hisoblanadi.

## 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi, % da



## 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 97,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ni tashkil etdi.




### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 527,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,9 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 26,5 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,1 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 12,9 %, kiyim ishlab chiqarish 7,1 %, tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

### 2019 yil oxirgi oylarida sanoatning ishlab chiqarish indeksi, % da



## Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019 yil yanvar-oktyabr oylarida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'sish sur'ati, foizda
42 308,0	<p>Paxta chigiti, t.</p> 	66,7
18 306,3	<p>Paxtadan yigirilgan ip, t.</p> 	2,7 m
48 913,0	<p>Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.</p> 	105,2
496,0	<p>Trikotaj yoki qulda to'qilgan ustki kiyimlar, ming dona</p> 	46,4

2019 yil  
yanvar-oktyabr  
oylarida

Ishlab chiqarilgan  
sanoat mahsulotlari

O'sish sur'ati,  
foizda

O'simlik yog'l (tozalangan), t.

8 151,4



91,0

Paxta tolasi, t.

25 933,0



63,0

Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun  
qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona

651,5



109,9

Mashinada yoki qo'lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.

2 051,0



142,0

Paxta linti, t.

2 211,0



59,0

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 193,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,0 %ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 88,1 % ni tashkil etdi.




## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etdi.


Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 1,2 % ni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,5 % ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat hajmi, mlrd.so'm




## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da




Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-oktyabr oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 3 882,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,7 % ni tashkil etdi.

## 2019 yil yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




## 2019 yil yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarish indeksi, % da






Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shaxri (53,3 %) va Do'stlik (9,5%), Paxtakor (6,3 %), Sh.Rashidov (6,0 %), Zomin (5,9 %), Forish (4,1 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.

## 2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'ri, % da




## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1 819,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 106,0 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 46,9 % ni tashkil etdi.




2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 68,4% dan 2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida 69,5 % ga ko'paygan.



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 2 847,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shaxrida 11 788,5 ming so'mni, Do'stlik tumanida 5 716,2 ming so'mni, Paxtakor tumanida 3 335,0 ming so'mni, Arnasoy tumanida 2 096,0 ming so'mni tashkil etadi.


## 2019 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari, ming so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1 noyabr holatiga faoliyat yuritayotgan 104 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 998,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 25,7% ni tashkil etdi.

## Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'mda




## Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi sanoat korxonalarining umumiy sanoat hajmidagi ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 2 596,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 66,9 % ni tashkil etdi.


## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi, % da




## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 noyabr holatiga 2 760 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 941 tasi Jizzax shaxrida, 595 tasi Sharof Rashidov, 252 tasi G'allaorol, 210 tasi Zomin, 117 tasi Forish, 108 tasi Zarbdor, 98 tasi Paxtakor, 95 tasi Do'stlik, 86 tasi Baxmal, 82 tasi Mirzacho'l, 76 tasi Zafarobod, 55 tasi Arnasoy, 45 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

### 2019 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



## 2019 yil 1 noyabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Sanoat statistikasi bo'limi  
telefon: (71) 230-83-47